

INTERNETDAGI VITUAL HAYOT VA REAL HAYOT O'RATSIDAGI FARQ

Mustafoqulova Sevara Xasan qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) yo'nalishi

1-24 guruh talabasi

Phone: +998 94-113-70 06

E-mail: sevara9192417@gmail.com

Scientific advisor: **Madieva Madina Yusupovna**

Termez University of Economics and Service,

Senior teacher of the Department of

Foreign Languages and literature (PhD)

Phone: +998 93 794 -50-00

E-mail: madinayusupovna1984@gmail.com

Annotatsiya: *Bugungi kunda internet hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bo'ldi. Deyarli har bir insonning o'z virtual "dunyosi" bor. Ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasi, qiziqarli o'yinlar rasmlar va i turli xilda yaratilgan video roliklar o'zini jalb qilib kelmoqda. Ayrim odamlar uchun bu virtual hayot hatto real hayotdan ko'ra qiziqarliroq va foydalilroq bo'lib ko'rinadi. Ammo internetdagi hayot bilan haqiqiy hayot o'rtasida katta farq mavjud. Ushbu maqolada biz virtual hayotning afzalliklari va kamchiliklarini, shu bilan birga, real hayotimizga qanday tasir o'tkazib kelayotgan bir nechta misollarni solishtirib ko'ramiz.*

Kalit so'zlar: *internet, Ijtimoiy tarmoq, virtual hayot, video roliklar, videolar, IT ta'siri, internet-o'yinlari, manipulyatsiyalar, onlayn bozorlar.*

THE DIFFERENCE BETWEEN VIRTUAL LIFE ON THE INTERNET AND REAL LIFE

Abstract: *Nowadays the Internet has become an integral part of our lives. Almost everyone has their own virtual "world". Their own page on social networks, interesting games, pictures and variously created video clips attract them. For some people, this virtual life seems even more interesting and useful than real life. However, there is a big difference between life on the Internet and real life. In this article, we will compare the advantages and disadvantages of virtual life, as well as several examples of how it affects our real life.*

Key words: *Internet, Social network, virtual life, video clips, videos, IT influence, Internet games, manipulations, online markets.*

РАЗНИЦА МЕЖДУ ВИРТУАЛЬНОЙ ЖИЗНЬЮ В ИНТЕРНЕТЕ И РЕАЛЬНОЙ ЖИЗНЬЮ

Аннотация: *Сегодня Интернет стал неотъемлемой частью нашей жизни. Практически у каждого есть свой виртуальный «мир». Собственная страница в социальных сетях, интересные игры, картинки и разнообразные видеоролики, которые привлекают внимание. Некоторым людям виртуальная жизнь кажется даже интереснее и полезнее реальной. Однако между жизнью в Интернете и реальной жизнью есть большая разница. В этой статье мы сравним преимущества и недостатки виртуальной жизни, а также приведём несколько примеров того, как она влияет на нашу реальную жизнь.*

Ключевые слова и фразы: *Интернет, социальная сеть, виртуальная жизнь, видеоклипы, видеоролики, влияние ИТ, интернет-игры, манипуляции, онлайн-рынки.*

KIRISH

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda texnologiya kundalik hayotimizning muhim qismiga aylandi. Deyarli barcha sohada katta tasir o'tkazib ko'zlangan yutuqlarga erishib kelmoqdamiz shubhasiz bunda internetning ya'ni virtual olamning o'rni beqiyosdir. Virtual muloqot nafaqat real hayotimizga ayniqsa yoshlar o'rtasida faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Hozirda ko'plab ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni millionlab, milliardlab foydalanuvchilarga yetgan.

MUHOKAMA VA JARAYONLAR

Bugungi kunda turli ko'rinishdagi axborotlarni uzatishga moslangan texnologiyalarning ijtimoiy-ma'naviy hayotning turli sohalariga shiddat bilan kirib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Qadriyatlarining makon bilan bog'liq xususiyatlari IT ta'sirida yo'qolib bormoqda. San'at, fan va ijtimoiy hayotning tegishli sohalariga texnologiya ta'siri natijasida butunlay o'zgacha dunyo virtual olam vujudga keldi. Darhaqiqat, virtual olam bir nechta sohalarda xususan ta'limning rivojlanishiga hissa qo'shib kelmoqda. O'quvchilar uchun video darsliklar va til o'rganish bo'yicha bir nechta qulay darsliklar yaratilgan. Ular o'zaro muloqotlari davomida, o'zlarining ijtimoiy sahifalariga yaqinlarining fotosuratlarini, videolarini qo'yadilar, misol uchun eng ommabop bo'lgan internet sahifalari Instagram, Youtube, Telegram, Watsapp kabi ijtimoiy tarmoqlarda o'z faoliyatini olib bormoqda. Kimlardir bu saytlarda o'zlarining unutib yuborgan tanishlarini, bolalikdagi do'stlarini topadilar. Darhaqiqat, ko'plab insonlarning o'zining shaxsiy bloglarini yuritib millionlab daromat qilganligi va chet elga sayyohatlar haqida eshitganmiz. Shuningdek, internet hozirgi kunda og'irimizi yengil, uzog'imizi yaqin qilib qo'ydi. Shu bilan birga, onlayn bozorlarning ko'payishiga va rivojlanishiga sabab bo'lyapti misol uchun Uzum market, Temu, Onlayn Korzinkalar, Alif Shop, Olx va boshqalar. Onlayn saytlar orqali ko'pchilik insonlar uylaridan chiqmagan holatda buyurtma berib o'zlariga kerakli narsalarni buyurtma qilyapti, har yaxshining bir yomoni bo'lganidey

ayrim mahsulotlarning suratagi kabi chiqmagan foydalanuvchilar ham talaygina noqulayliklar keltirib chiqargan.

IZLANISHLAR VA NATIJALAR

Virtual makon insonlar keng imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, qisqa vaqt ichida turli ma’lumotlarga ega bo’lish, dunyoning istalgan nuqtasidagi insonlar bilan muloqot o’rnatish, ta’lim olish va masofaviy ish faoliyatini yuritish imkoniyati mavjud. Shu bois internet ijtimoiy hayotning muqobil maydoniga aylangan. Aloqa vositalarining rivojlanishi natijasida internet-o’yinlari paydo bo’ldi. Internet makoni darvozasi keng ochilgan, u ma’naviy qadriyatlar dunyosini shiddat bilan o’zgartirib, qayta qurmoqda. Ayniqsa, virtual olam ko’rinishlari endi o’sib kelayotgan bolalar ruhiy dunyosiga birmuncha salbiy ta’sir etadi. Albatta, virtual olamdagi voqelik real olamdan qiziqroq ko’rinadi. Ma’lumotlarga qaraganda, internetdagi barcha narsalar ham real hayotimiz kabi emas, garchi shunga qaramasdan ko’pchilik yoshlar o’zlarini hayotlarini internetdagi mashhur bloggerlarga taqlit qilib hayoting buzilib ketganligi haqida ham eshitganmiz. Bundan tashqari, ayrim mahsulotlar real hayotdan ko’ra arzon bo’lishi mumkin ammo yaroqli muddati ko’pga bormaydi. Turli xildagi firibgar xakerlar insonlarning ishonchiga kirib pullarini yechib ketganing guvohi bo’lganmiz. Virtual hayotning salbiy natija oqibatlari ham talaygina. Avvalo, inson vaqtini behuda sarflashi, real hayotiy vazifalarni e’tiborsiz qoldirishi mumkin. Bundan tashqari, virtual makondagi yolg’on ma’lumotlar, manipulyatsiyalar va sun’iy obrazlar inson psixologiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Bu esa ijtimoiy ajralish, yolg’izlik va ruhiy bosimni kuchaytirishi mumkin. Real hayotda oila a’zolari bilan yaqinlik, do’stlik munosabatlari, jamiyatdagi bevosita muloqot, insoniy his-tuyg’ularni to’liq anglash imkoniyatlari mavjud. Virtual muloqot hech qachon inson yuzidagi tabassum, ko’zdagi samimiyat yoki qo’l siqish kabi jonli hissiy tajribalarni almashtira olmaydi.

XULOSA

Internetdagi virtual hayot inson faoliyati uchun qulayliklar yaratishi bilan birga, real hayotning o’rnini to’liq bosa olmaydi. Virtual makon inson hayotining muhim qismiga aylangan bo’lsa-da, insonni jamiyat bilan bog’lab turuvchi asosiy qadriyatlar real hayot doirasida shakllanadi. Shu sababli virtual va real hayot o’rtasida muvozanatni saqlash zamonaviy jamiyatning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

REFERENCES:

1. www.ziynet.uz
2. <https://kingbek.blogspot.com> 2024.03
3. Bahodir Zokir Globalllshuv ziddiyatlari. “Tafakkur”2000-yil 35-bet.
4. Маркузе Г. Техногенная цивилизация. – М.: Элигия, 1998. – С. 45.
5. Virtual Worlds Management (2008-yil 22-aprel).